

Farg'ona sh.

Farg'ona Mintakaviy Yo'llarga Buyurtmachi Xizmati Davlat Unitar Korxonasi (keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan, amaldagi Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi korxona direktori Sh.Po'latov bir tarafdan va "GLOBAL MAXSULOT MCHJ" (keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiladi) nomidan, amaldagi Nizomga asosan faoliyat yurituvchi direktori Q. Homidov ikkinchi tarafdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sون qaroriga asosan "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar" 2022-yil "Tashabbusli byudjet" dasturi doirasida Farg'ona viloyatidagi ichki xo'jalik yo'llarini mahalliy byudjeti mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha mazkur Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar: Lot № 22110012174127

## 1.TARIFLAR

- 1.1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

**ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlari yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birlgilikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi bosqqa xujjatlari, berkitiladigan ishlari tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan bosqqa xujjatlari;

**qurilish maydoni** – mazkur shartnomada (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomada bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan bosqqa belgilari bilan belgilab qo'yiladi;

**vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

**berkitiladigan ishlari** – sifati va aniqligini keyingi ishlari bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'limgan keyinchalik bajariladigan ishlari va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlari;

**shartnoma narxini bo'lib chiqish** – ishlarning xar bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilangan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash (ishlar bajarish va moliyalashtirish jadvallari).

## 2. SHARTNOMA MAVZUSI.

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sон qaroriga asosan "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar" 2022-yil "Tashabbusli byudjet" dasturi doirasida Farg'ona viloyatidagi ichki xo'jalik yo'llarini mahalliy byudjeti mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash ishlari "Buyurtmachi" topshirigiga asosan Farg'ona viloyati Furqat tuman O'rtaqurg'on MFY ko'chasi ichki yo'llarini joriy ta'mirlash ishlarini loyixa-smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan xolda bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi"ga ishlarni qabul qilish va to'lojni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## 3. SHARTNOMA BO'YICH A ISHLAR QIYMATI.

- 3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan umumiy ishlari qiymati barcha soliqlar, yig'imalar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **1 140 720 000** (Bir milliard bir yuz kirk millionetti yuz yigirma ming sumni tashkil etadi).

- 3.2. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi

- 3.3 Tegishli asoslar mavjud bo'lganda Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi

## 4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartlariga muvofik topshirish;

- zarur xollarda ayrim ish turlarining bajarilishi loyixa-smeta xujjatlarida belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniiga, o'rindosh mashina-mexanizmdan foydalanishi, belgilangan sifat laboratoriysi xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'lik xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

- shartnoma shartlariga asosan ob'ektni buyurtmachiga tasdiqlangan loyixaga muvofiq topshiradi;

- Pudratchi Buyurtmachi oldida yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun javobgar bo'ladi.

4.2. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun "Buyurtmachi" oldida tulik mulkiy javob beradi.

4.3. Agar berkitiladigan ishlari Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu xaqda xabardor qilinmagan bo'lsa yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u xolda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladijan ishlarning istalgan qismini o'z xisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

4.4. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o‘z kuchlari bilan va qurilish qiyomatini ko‘paytirmsadan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta‘minlash uchun kelishilgan muddatda o‘z xisobidan qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnomaga 3.3-bandining ikkinchi xat boshida ko‘rsatilgan xollar bundan mustasno.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o‘z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko‘rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘ish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

## 5. BUYURTMAChINING MAJBURIYATLARI.

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- "Pudratchi"ni o‘z vaqtida loyixa-smeta xujjalari bilan ta‘minlaydi;

- mazkur shartnomaga imzolangan kundan boshlab ishlarni bajarish uchun ob‘ektni ishlarni tugallagungacha bo‘lgan davrda dalolatnoma bo‘yicha "Pudratchi"ga beradi;

- ishlarni bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan "Pudratchi" tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, "Pudratchi"dan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta‘minlashni amalga oshiradi;

- ushbushartnomadanazardatutilganmuddatdava miqdorda "Pudratchi"ga xaq to‘laydi;

- "Pudratchi"ningbarchamurojaatlarinio‘n kun muddatda ko‘ribchiqadi.

## 6. TO‘LOV ShARTLARI VA XISOB-KITOBLAR.

6.1. "Buyurtmachi" ushbu shartnomaga asosan "Pudratchi"ning xisob raqamiga shartnomada ko‘rsatilgan qiymatning 15%gacha miqdorida 2-ilovaga avans mablag‘ini o‘tkazadi.

6.2. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlarni sifati tekshirilganidan keyin berilgan avansni xisobga olgan xolda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofik ob‘ektning umumiyligi shartnomaviy joriy qiymatining 70% miqdorida amalga oshiriladi. 5 foizlik ob‘ekt kafolat muddati tugagandan so‘ng moliyalashtiriladi.

6.3. "Pudratchi"ning boshqa xarajatlari loyixa-smeta xujjalari ko‘rsatilgan boshqaxarajatlari qiymatidan oshmagan xolda to‘lovga qabul qilinadi.

6.4. Pudratchi ob‘ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnomaga bo‘yicha ob‘ektga mulk xuquqini o‘zida saqlab qoladi. Ob‘ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob‘ektning tasodifiyo‘q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo‘ladi.

## 7. ISHLARNI BAJARISH.

7.1. Pudratchi mazkur shartnomaga kuchga kirgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

7.2. "Buyurtmachi" qurilish maydonida o‘z vakilini - texnik auditorini tayinlaydi. U "Buyurtmachi"ning nomidai bajarilayotgai ishlarni sifatiustidan texnik nazoratni amalga oshiradi.

## 8. YENGIB BO‘LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.

8.1. Agar ushbu shartnomaga bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka yengib bo‘lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar bunday majburiyatlarini qisman yoki to‘lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.2. Pudratchining mazkur shartnomani bajarish uchun boshqa shartlashuvi sheriklari tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo‘qligi, Pudratchida zarur pul mablag‘larining bo‘limganligi fors-mafor xolatlariga kirmaydi.

Mazkur shartnomaga bo‘yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.3. Agar yengib bo‘lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘p vaqtga cho‘zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko‘rilishini muxokama qiladilar.

8.4. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnomasi bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

## 9. KAFOLATLAR.

9.1. "Pudratchi":

- barcha ishlarni to‘liq xajmda sifatli va mazkur shartnomaga shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini kafolatlaydi.

9.2. "Pudratchi":

- barcha ishlarni to‘liq xajmda va mazkur shartnomaga shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

- loyixa xujjalari xamda qurilish me‘yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni sifatli bajarilishini ta‘minlashi lozim;

- o‘zi tomonidan qurilish uchun qo‘llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjalari ko‘rsatilgan sertifikatlarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob‘ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchilik va nuksонlarni o‘z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob‘ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalari muvofiqligini kafolatlaydi ob‘ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddat

tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida bir yil etib belgilanadi.

9.3. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga kadar foydalanishni davom etgirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u xolda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar "Pudratchi" tomonidan uning o'z xisobidan bartaraf etiladi.

9.4. Agar "Pudratchi" bajarilgan ishlardagi nuqson va chala ishlarni dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda "Buyurtmachi" tomonidan 5%li kafolat summasini "Pudratchi"dan ushlab qolish xuquqiga ega.

9.5. "Pudratchi" nuqsonlar va chala ishlarni ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l qurilish ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi» tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudiga murojaat qilishdan istisno etmaydi.

## 10. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

10.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

10.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsta'ilgano'z majburiyatlariga riousa qilmaganligi, ob'ekt xisob raqamiga mablag'lar berilgandan so'ng o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% mikdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50% oshmasligi lozim. Penya to'lanishi "Buyurtmachi"ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.3. "Pudratchi" ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5% mikdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50%dan oshmasligi lozim. Penya to'lash "Pudratchi"ni ishlarnibajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.4. Agar bajarilgan ishlarni sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yordari va qoidalari, ish xujjatlariga muvofik bo'lmasa, u xolda "Buyurtmachi" «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l qurilish ishlarni sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi»ning xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek "Pudratchi"dan sifati zarur darajada bo'lmasan ishlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

## 11. NIZOLARNI XAL QILISH.

11.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar xal etolmasa ular konun xujjatlarida, belgilangan tartibda Iqtisodiy Sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

## 12. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

### 12.1. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin kuriishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'lmasan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga riousa etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yordari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun ujjatlariga muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

### 12.2. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'lmasan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

12.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish 15 kun muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiyatini Pudratchiga to'laydi.

12.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

12.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

12.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

## 13. SHARTNOMAGA KO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI.

13.1. Ushbu shartnomaga xar qanday kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, xar ikkala taraf imzolagan xollardagina xaqiqiy kuchga ega bo'ladi.

13.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor kilish taraflarning kelishivi bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasining amalda Fukarolik kodeksi va konun xujjalarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, yetkazilgan zararlarni koplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

13.3. Shartnomani bekor kilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

#### **14. MAJBURIYATLARNI AMALDA BO'LISH ShARTI VA MUDDATI.**

14.1. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng Viloyat G'aznachilik Boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrigacha amal qiladi.

14.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada tuzildi.

14.3. Mazkur shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1-ilova - Bajarish jadvali.
- 2-ilova - Moliyalashtirish jadvali.

#### **14. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA TO'LOV REKVIZITLARI.**

##### **"BUYURTMAChI"**

Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati davlat unitar korxonasi

Manzil: Farg'ona sh. Aeroport ko'chasi 1-uy

Tel./faks: +99873-249-50-53

ShG'H: 401722860302387045204118001

INN:304 899 935

Farg'ona viloyati G'aznachilikboshkarmasi

YaG'H: 23 402 000 300 100 001010

Bank nomi: Markaziybankning Toshkentshahar

Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)

MFO:00014 G'aznachilikbo'linmasining

STIR: 201 122919

Buyurtmachi rahbari

Sh.Po'shatov



##### **"PUDRATCHI"**

##### **"GLOBAL MAXSULOT" MCHJ**

Manzil: Margilon sh.Xiyobon kuchasi 298

Tel./faks: 91)661-32-06

INN:307 329 399

X/R: 20208 000 905 213 388 001

Tokent sh.ATB Kishlok kurilish Bank

MFO: 01037



Q. Homidov

#### **XUQUQIY XULOSA**

Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 12.09.2003-yildagi 395-sonli qarori va boshqa me'yoriy xujjalarga asoslangan xolda to'g'ri tuzilgan. Shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtaсидаги majburiyatlarni bajarish muddati, predmeti, narxi va javobgarlik shartlari kelishi olingan. Shartnomani imzolash mumkin.

Buyurtmachi yurishi


R.Alimov



Moliyalashtirish JadvaliRespublika byudjet mablag'larini xisobidanFarg'onasi viloyati Farg'ona viloyati Furqat tumani O'rtaqurxon MFY ko'chalarini ioriy ta'mirlash ob'ektingin

min.sum.

	Условия финансирования	2022										2023		
		Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Jami 2022
1	<u>30% avans</u>												171,108	171,108
2	<u>Joriy moliyalashtirish</u> bajarilgan ishga nisbatan proportional ravishida ajratigan avansni ino-baiga olgan holda												969,612	969,612
3	<u>JAMI:</u>												1140,720	1140,720
	<u>Qolgan 5% mablag' kafolat muddati tugagunga qadar</u>												1140,720	1140,720
	<u>JAMI OB'EKET BO'YChA</u>												1140,720	1140,720



"ПУДРАТЧИ"  
Jahon

"БУРТМАЧИ"  
Jahon

Farg'ona viloyati Farg'ona viloyati Furqat tuman O'rtaqurg'on MFY  
ko'chalarini joriy ta'mirlash obektning \_\_\_\_\_ sonli  
shartnomasiga 1-lova

### Farg'ona viloyati Farg'ona viloyati Furqat tuman O'rtaqurg'on MFY ko'chalarini joriy ta'mirlash ob'ektning

#### Bajarish Jadvali

№	Amalga oshiriladigan ishlar	Yillar	Umumiyy qiymati	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Meng sum	
1	Qurilish montaj ishlari	2022 yil	1 140 720,000														1140720
2		2023 yil															
		Hammasi:															
			1 140 720,000														



*[Signature]*



*[Signature]*